

## Usmonxo'jayev Inomjon Buzrukovich



# Usmonxo'jayev Inomjon Buzrukovich



(1930 yil 21 may, Bag'dod tumani)

(1983-1988)

Partiya arbobi. O'rta Osiyo politexnika institutining *arxitektura* fakultetini tugatgan (1955). Marg'ilon shahri bosh me'mori (1959), Farg'ona viloyati partiya komiteti instruktoriga (1960), Farg'ona viloyati ijroiya qo'mitasi boshqarma boshlig'i (1961), Farg'ona shahri ijroiya qo'mitasi raisi (1962-64), Sirdaryo viloyati partiya komiteti kotibi (1965-69), KPSS MK instruktoriga (1969-72), Namangan viloyati ijroiya qo'mitasi raisi (1972-74), Andijon viloyati partiya komiteti 1-kotibi (1974-78), O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi (1978-83). *O'zbekiston Kompartiyasi MK 1-kotibi* (1983-88).

I. Usmonxo'jayev respublikaga rahbarlik qilgan yillarda siyosiy va iqtisodiy vaziyat yomonlashdi, u qat'iyatsizligi va jur'atsizligi tufayli Markazning tazyiqiga dosh bera olmay, 1984-88 yillarda O'zbekistonning

ko'plab xo'jalik va partiya arboblari "paxta ishi" va "o'zbeklar ishi" degan soxta siyosiy ayblovlar natijasida qatag'on qilinishiga, xalqning milliy g'ururi va qadriyatlari kamsitilishiga yo'l qo'yib berdi.

2023-12-20 15:11:54